



AUTIZM SPEKTORLI O‘QUVCHILAR OTA-ONALARI VA MAXSUS MAKTAB HAMKORLIGI

Abidova N.Q.

*Alfraganus University nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
(PhD), dotsent*

Tayanch so‘zlar: autizm, ota-onalar, pedagog, autizm spektrli bolalar, samarali usullari, korreksion-pedagogik reabilitatsiya, psixologik - pedagogik ish, ta'lim - tarbiya bosqichlari.

Ключевые слова: аутизм, родители, педагоги, дети с аутизмом, эффективные методы, коррекционно-педагогическая реабилитация, психолого-педагогическая работа, образователь-но-пропагандистская стадия.

Key words: autism, parents, teachers, children with autism, effective methods, correctional and pedagogical rehabilitation, psychological and pedagogical work, educational and propaganda stage.

Резюме:

Mazkur maqolada autizm spektrli o‘quvchilarning ota-onalari va maxsus maktab hamkorligining pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi. Maqolada autizm spektrli bolalar ota-onalari bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ish bosqichlari, shakllari tahlili amalga oshirilgan.

Резюме:

В данной статье освещаются педагогические условия сотрудничества родителей учащихся с аутизмом и специальной школой. В статье проведен анализ форм и этапов психолого-педагогической работы с родителями детей с аутизмом.

Summary:

This article highlights the pedagogical conditions for cooperation between parents of students with autism and a special school. The article analyzes the forms and stages of psychological and pedagogical work with parents of children with autism.

Respublikamizda so‘ngi yillarda nogironligi bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etishning huquqiy-me‘yoriy asoslari mustahkamlanmoqda. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Natijada jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi. Xususan, autizm spektrli bolalar tarbiyasining muvaffaqiyati

nafaqat o'qituvchilarning o'z majburiyatlariga nisbatan munosabatlariga, ularning kasbiy tayyorgarligi-yu ahloqiy-psixologik qiyofasiga, balki bola tug'ilib o'sadigan oiladagi mikromuhitga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Oiladagi tarbiya shaxsning ahloqiy sifatlarining shakllanishida chuqur iz qoldiradi. Bola muayyan hayotiy tajriba orttiradigan va jamiyatda qaror topgan ahloq normalariga daxldor bo'ladigan dastlabki ijtimoiy muhit bu oiladir. Oilada bolaning muayyan ijtimoiy qadriyatlarga yo'naltirilgan hayotiy qarashlari shakllana boshlaydi, hayotiy maqsad haqidagi tasavvurlari paydo bo'ladi. Ota-onalar autizm spektorli bolani bemor deb bilsalar, boshqalari, aksincha, bolada hech qanday me'yordan chetga chiqish borligini ko'rishni istamaydilar. Bu bilan bog'liq holda autizm spektorli bolaning rivojlanishi bilan bog'liq hozirgi muammolarni ham tushunib yetmaydilar[3.-67.b.].

Autizm spektorli bolalarga ta'lim va tarbiya berish ishining maqsadi – bola shaxsining maqbul shart-sharoitlarda rivojlanishini ta'minlash (jismoniy, ijtimoiy, odob-ahloq meyorlarida, intellektual), bolaga kompleks, ijtimoiy-pedagogik, korreksion, tarbiyaviy va psixologik yordam berish, shuningdek bolani kundalik hayotiy vaziyatlarda himoya qilishdan iborat[2.-67.b.]. O'qituvchilar ham, ota-onalar ham autizm spektorli bola ijobiy tomonga rivojlanishi va to'g'ri tarbiya topishidan manfaatdorlar. Maktab va oilaning o'zaro aloqalari tarbiya maqsadi va vazifalarining birligidan kelib chiqadi. Bu maqsadni maxsus o'quv muassasasining o'zi bajara olmaydi. Bunda ota-onalar, oilaning yaqin kishilari, mahallaning ishtiroki muhim o'rin egallaydi. Bu esa o'qituvchini, o'zining ota-onaga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ular bilan doimiy aloqa qilib turishini taqozo etadi. Autizm spektorli bolalarni tarbiyalash, ularning kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish, ta'limini to'laqonli tashkil qilish, pirovard natijada ijtimoiy-foydali shaxs qilib yetishtirishda oilaning roli katta ekani e'tirof etilgan haqiqatdir.

Autizm spektorli bola uyda tarbiyalanayotgan paytda ham, rivojlanishdagi kamchilik chuqur bo'lgani sababli yoki yuzaga kelgan hayotiy vaziyat tufayli u maxsus muassasada bo'lgan paytda ham bola tarbiyasida ota-onalarning tutgan o'rnini hech narsa bosa olmaydi [1.-12.b.]. O'z farzandining rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda aql bovar qilmaydigan kuch sarflayotgan ota-onalar oz emas. Biroq ularga ko'p hollarda bilim va malakalar yetishmaydi, ba'zida esa sohta, xato tasavvurlar xalaqit beradi. Ota-onaga autizm spektorli farzandining psixologik-jismoniy xususiyatlari, o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari, bolaning zaif va kuchli tomonlari haqida ma'lumot berish va bunda bolaning kuchli tomonlariga ko'proq e'tibor qaratish, muhimi bu bilimlardan foydalanish malakalarini rivojlantirish bu ishning asosiy mazmunini tashkil



qiladi[5.-90.b.]. Bu faoliyatning asosiy maqsadi onaning autizm spektorli farzandiga nisbatan dunyoqarashini o'zgartirishdan iborat. Ona o'z bolasiga nisbatan vazifalarini faqat uni boqish, parvarishlash, davolashdagina emas, balki uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ekanini va bu vazifa muhimroq ekanini anglab yetishi lozim. Shundagina u tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushunadi va o'z kuchini shu vazifaga ham qaratadi. Natijada ota-ona farzandining ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq korreksion ish sohasida ham bilim va tajribalari ortib boradi. Autizm spektorli bolalar ota-onalari bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ish asosan uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich ota-onani o'quv jarayoniga jalb qilishga yo'naltiriladi. Pedagog autizm spektorli bolani bu ishda faqat uning muhabbati va xatti-harakatlariga muhtoj ekanligiga, ota-ona farzandining o'quv jarayoni bilan o'zidan boshqa odam bu darajada sidqidildan shug'ullana omasligiga, nihoyat, bu ishdan o'zidan boshqa kishi bu darajada manfaatdor emasligiga bemor bolaning onasini ishontirish kerak.

Ikkinchi bosqich onada o'z farzandining rivojlanish jarayoniga nisbatan qiziqishni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bunda pedagog onaning e'tiborini bolasida kichik bo'lsa-da, ammo uning rivojlanishida g'oyat muhim bo'lgan yutuqlar bo'lishi mumkinligiga qaratadi. Asta sekin ona pedagog bergan topshiriqlar ustida uyda autizm spektorli bolasi bilan ishlash malakalariga ega bo'lib boradi.

Uchinchi bosqichning maqsadi ota-onaning ko'z o'ngida autizm spektorli bola ta'limida shaxsiy ijodiy yondoshuvlarni qidirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Autizm spektorli o'quvchilarning ota-onalari va maxsus maktab hamkorligida ijodiylikni namoyon qilish onaga uzoq muddatli stress paytida salbiy ichki psixologik holatni susaytirish, o'zining eshitishda nuqsoni bo'lgan bolafarzand bilan bog'liq hayotiy qoidalari va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Autizm spektri buzilishi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda ota-onalar va maxsus maktablarning hamkorligi juda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik, o'quvchining rivojlanishi va ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur. Ota-onalar va ta'lim muassasalarining birgalikda ishlashlari, o'quvchining individual ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va unga eng yaxshi qo'llab-quvvatlashni taqdim etish imkonini yaratadi. Bu hamkorlik bir necha ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. Ota-onalar va maktab o'qituvchilari o'rtasida muntazam ravishda muloqot o'rnatilishi kerak. Autizm spektri buzilishi bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus o'quv rejasi yoki individual ta'lim rejasi ishlab chiqish juda muhim. Autizm spektridagi o'quvchilarda ijtimoiy

ko'nikmalarni rivojlantirish va hissiy holatni boshqarish muhimdir. Autizm spektri bo'lgan o'quvchilarni ta'limlashda maxsus o'qituvchilar, psixologlar, pedagoglar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik zarur. Ota-onalar, autizm spektridagi o'quvchining tarbiyasi va rivojlanishini ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuning uchun ular uchun maxsus seminarlar, kurslar va maslahatlar tashkil etish lozim. Autizm spektridagi o'quvchilarga moslashuv ta'lim metodlari va materiallari ishlab chiqilishi kerak. Autizm spektri bo'lgan o'quvchilarni jamiyatga moslashtirish, ular uchun ta'lim muhitini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash muhim.

Ota-onalar bilan olib boriladigan dastlabki suhbatlarda pedagog ularga quyidagi qoidalarga rioya qilishni, bu qoidalar ularning hayotini ancha osonlashtirishini qayta-qayta ta'kidlashi lozim[2.-320.b.]. Avvalam bor pedagog ota-onalarga qo'rqinch, tushkunlik, umidsizlik tuyg'ularini yengish kerakligini, ikkinchidan, sodir bo'lgan vaziyatda aybdorni qidirish behuda vaqtni sarf qilish ekanini, bu o'rinda aybdorning o'zi yo'qligini uqtirishi kerak. Uchinchidan, ota-onalarga o'z bolasiga va oilasiga qanday yordam talab qilinishini (tibbiy yoki psixologik-pedagogik, yoki har ikkalasi) aniqlab olishni maslahat beradi.

Ota-onalar va maxsus maktab o'rtasidagi ochiq muloqot autizm spektri buzilishi bo'lgan o'quvchilarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishi uchun juda muhimdir. O'quvchining rivojlanishiga, ta'limda muvaffaqiyatga erishishiga va ijtimoiy moslashuviga yordam berishda, bu muloqotning samarali bo'lishi juda zarur. Ochiq va samarali muloqot o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar o'rtasida o'quvchining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ota-onalar va maxsus maktab o'rtasidagi muloqotning asosiy maqsadi - o'quvchining individual ehtiyojlarini aniqlash va unga mos ta'lim usullarini ishlab chiqishdir. Muloqot o'quvchining yutuqlari va muammolarini baholash, ularning o'quv jarayonidagi qiyinchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun strategiyalar ishlab chiqish, o'quvchining ijtimoiy va emotsional holatini yaxshilash uchun birgalikda ishlashni ta'minlash maqsadida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ochiq va samimiy muloqotning bir qancha afzalliklari bor. O'quvchining holati haqida yaxshiroq tushuncha berilishi, ota-onalar o'z farzandlarining uyda qanday holatda bo'lishini, qanday qiyinchiliklarga duch kelishini va qanday yutuqlarga erishganini maktabdagi o'qituvchilarga aytib bera oladilar. O'qituvchilar esa o'quvchining sinfdagi holatini ota-onalar bilan bo'lishib, o'zgarishlarni aniqlashlari mumkin. Moslashtirilgan ta'lim rejasi



esa, o'qituvchilar va ota-onalar birgalikda o'quvchining ehtiyojlariga mos individual ta'lim rejasi tuzishda yordam berishlari mumkin. Autizm bilan kasallangan bolaning ota-onalari va o'qituvchilar o'rtasidagi yaxshi muloqot o'quvchining hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bu o'quvchi o'zini qo'llab-quvvatlangan va tushunilgan his qiladi.

Muloqotning samarali bo'lishi uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

Yuzma-yuz uchrashuvlar: Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida muntazam yuzma-yuz uchrashuvlar tashkil qilish kerak. Bu uchrashuvlarda o'quvchining yutuqlari va muammolari haqida suhbatlashish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni muhokama qilish mumkin.

Telefon yoki elektron pochta orqali muloqot: Agar yuzma-yuz uchrashuvlar har doim mumkin bo'lmasa, telefon yoki elektron pochta orqali tez-tez bog'lanib turish, o'quvchining holati haqida ma'lumot almashish ham samarali bo'ladi.

Jadval yoki hisobotlar: Maktab o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan yillik yoki oylik hisobotlar, o'quvchining yutuqlari va rivojlanishidagi o'zgarishlar haqida ota-onalarga muntazam ravishda yuborilishi kerak.

Onlayn platformalar: Ba'zi maktablar onlayn platformalar (masalan, maxsus mobil ilovalar yoki elektron jurnallar) orqali o'quvchining holatini kuzatish va ota-onalar bilan ma'lumot almashish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu usulning afzalligi – ota-onalar har doim o'quvchining ta'lim jarayoniga doir yangiliklardan xabardor bo'lishlari mumkin.

Ochiq muloqot o'rnatishda ba'zi muhim jihatlarni inobatga olish zarur. Muloqotda ijobiy va konstruktiv yondashuvni saqlash juda muhim. Ota-onalar va o'qituvchilar bir-birlariga tanqid emas, balki o'quvchini qo'llab-quvvatlash va unga yordam berish yo'llarini izlashlari kerak. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida ochiq va samimiy muloqot bo'lishi kerak. O'quvchining muammolari yoki ehtiyojlari haqida to'liq va aniq ma'lumot almashish o'quvchining ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Autizm spektri bo'lgan o'quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va ularga yordam berish uchun ota-onalar va o'qituvchilar bir-birlariga empatiya ko'rsatishlari, o'quvchining hissiy holatiga mos ravishda muloqot qilishlari kerak. Autizm spektri bo'lgan o'quvchilarning rivojlanish jarayoni sekin bo'lishi mumkin, shuning uchun sabr-toqatli bo'lish va har bir kichik yutuqni nishonlash muhim.

Ba'zi hollarda, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotda to'siqlar yuzaga kelishi mumkin. O'qituvchilar va ota-onalar ko'pincha o'z vaqtlarini cheklangan tarzda taqsimlaydilar. Bunday holatlarda uchrashuvlarni rejalashtirish va muloqotning samarali bo'lishini ta'minlash uchun avvaldan o'ylab ko'rish zarur. Ba'zi ota-onalar va o'qituvchilar o'quvchiga nisbatan farqli

yondashuvlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda, o'qituvchi va ota-ona o'rtasida o'zaro fikr almashish, birgalikda yechimlar topish muhimdir. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida ba'zan tushunmovchiliklar bo'lishi mumkin. Muloqotni yanada aniq va tushunarli qilish uchun barcha ma'lumotlar oddiy va ravshan tarzda yetkazilishi kerak.

Shunday qilib, pedogog ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlarda ta'limiy va psixologik ishni birga qo'shib olib boradi, vaziyatni nazorat qilishga to'sqinlik qiladigan shubha va qo'rquv tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oila oilaviy terapiya va ta'limiy treninglar dasturlariga ham jalb qilinishi mumkin. Ularning maqsadi – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, autizm spektorli bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq tang vaziyatlar keltirib chiqargan yashirin muammolarni hal qilish. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishning individual maslahatlar berish shakli odatda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat bo'ladi. Maslahatlar davomida maslahatchi- pedogogning maxsus bilimlari maslahat oluvchilarga kundalik muammolarni hal qilish yoki bo'lajak xatti-harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga ijobiy yordam beradi. Ota-onalar va maxsus maktab o'rtasidagi ochiq muloqot, autizm spektridagi o'quvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishida va ijtimoiy moslashuv jarayonida katta ahamiyatga ega. Ochiq, ijobiy va konstruktiv muloqot orqali ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda o'quvchining ehtiyojlarini aniqlashlari, unga individual yordam ko'rsatishlari va uning rivojlanishini yaxshilashlari mumkin. Bu hamkorlik nafaqat o'quvchining o'quv jarayonini, balki uning jamiyatga moslashishini ham ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika - T.: G'afur G'ulom, 2004.
2. Maxsus pedagogika (darslik). R.M.Ro'latova, L.Sh.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2014. - 520 b
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi, 2005. – 223 b.